TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA PORTRET ISHLASHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

Yusupova Shaxista Alimjanovna, Guliston davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi,
Boykuziyev Beksulton Akmaljon o'g'li, Guliston davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik fanlar" kafedrasi 32-23 guruh talabasi,
e-mail: yusupovashoxista32@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'quvchilar uchun ahamiyati, tasviriy san'atni tasvirlashda geometrik shakllarining o'rni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars mobaynida qo'llanilishi va uning ta'lim sifatini oshirish jarayonidagi faoliyati. Portret janrini ishlashda plastik anatomiya qonuniyatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, maqsad, dars, ijodkorlik, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, zamonaviy, an'anaviy, pedagogik texnologiya, geometrik, rangtasvir, qalamtasvir, muskul, kompozitsiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПОРТРЕТНОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается значение занятий изобразительным искусством для учащихся, роль геометрических фигур в описании изобразительного искусства, использование современных педагогических технологий на уроке и его активность в процессе повышения качества образования. Даны сведения о законах пластической анатомии в творчестве портретного жанра.

Ключевые слова: изобразительное искусство, цель, урок, творчество, учитель, ученик, образование, воспитание, современное, традиционное, педагогическая технология, геометрический, живопись, карандашный рисунок, мышца, композиция.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PORTRAIT WORK IN FINE ART LESSONS

Annotation. This article examines the importance of fine arts classes for students, the role of geometric figures in the description of fine arts, the use of modern pedagogical technologies in the classroom and its activity in the process of improving the quality of education. Information is given about the laws of plastic anatomy in the work of the portrait genre.

Keywords: fine arts, goal, lesson, creativity, teacher, student, education, upbringing, modern, traditional, educational technology, geometric, painting, pencil drawing, muscle, composition.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv uslubiy manbalarni yaratish va o‘quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib kelinmoqda. Shuning uchun dars jarayonlarini xozirgi ta’lim tizimi yo‘nalishiga oid uslublarda ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish muhum ahamiyatlardan biri hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri bu tasviriy san’at bo‘lib, o‘quvchilarning badiiy-estetik sifatlarini rivojlantirish, ularda san’atga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish, shuningdek, yaratuvchanlik va ijodkorlik fazilatlarini tarkib toptirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

O‘sib kelayotgan yoshlarni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san’at fani alohida va muhum ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga badiiy ma’lumot berishda, borliqni haqqoniy tasvirlash mashg‘ulotlari benihoya katta bo‘lib, bu ularning umumiy dunyoqarashlarini o‘stirishda yordam beradi. Milliy va jahon san’at asarlarining eng yaxshi na’munalarini targ‘ib qilish va ommalashtirish, yosh avlodni ma’naviy va ma’rifiy tarbiyalashning asosi bo‘lmog‘i kerak bo‘ladi. “Tasviriy san’at” o‘quv predmeti ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan badiiy madaniyatni uyg‘un rivojlanishga xizmat qiladi va shaxs uchun muhim bo‘lgan bir qator sifatlarni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Bu esa o‘quvchilarni milliy merosni o‘zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Ta’lim tizimi omili soddadan murakkabga qarab bosqichma-bosqich o‘qitish me’yori hisoblanadi. Shu sababli, o‘quvchilarning rasm chizishni o‘rganishida boshlang‘ich tasvirlari xandasiy shakllarni chizishda alohida e’tibor qaratiladi. Buning natijada oddiy tasvirlarni sifatli qilib tasvirlashda ancha engilliklar keltirib chiqaradi. So‘ng keyingi murakkab tuzilishdagi tasvirlarni rasmini chizishga bosqichlar asosida o‘tiladi. Xoxlagan tasvirni chizishda geometrik shakllardan foydalansa, prespektiva xodisalarini to‘g‘ri tasvirlashga ko‘mak beradi. Tasvirlanayotgan har bir tasvirlarning o‘z o‘lchovi, xajmi va ko‘rinishiga egadir. Bularning barchasini inobatga olishimiz kerakki, tasvirni eni, bo‘yi, qalinligi, balandligi, bir-biriga nisbatlari, uning katta kichikligini inobatga olib uni nafaqat ko‘rib balkim xis qilmoq lozim bo‘ladi. Har bir soxani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Yoshlarga oziqaning samarasini esa o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ijodiy yondashgan holda mashg‘ulotlarni interfaol metodlar bilan olib borish muhum ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san’at yo‘nalishi boshlang‘ich kurslarida gipsdan ishlangan turli xil geomterik shakllarning o‘ziga qarab tasvirlash vazifalari ko‘rsatilgan. Bunda ular kub, shar, piramida, prizma, konus, silindr, gipsli ko‘za, turli naqsh va me’morlik bo‘laklari va hakozalarni o‘ziga qarab tasvirlanadi. Mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi, talabalarda kamponovka (qog‘ozga joylashtirish), kompozitsiya, chiziqli konstruktiv qurilish, nisbatlar, perspektiva asoslari kabi ko‘pgina malakalarni o‘rgatish hamda shakllantirishdan iboratdir. O‘qituvchi tomonidan u yoki bu vazifani

bajarishda unga qo‘yiladigan talablarni tushungandek bo‘lsalarda, yetarli malaka va ko‘nikmalarning, hamda ushbu vazifani ishlashda asos hisoblangan qonun-qoidalarni bilmasliklari oqibatida ancha qiyinchiliklarga ijod mobaynida duch keladilar.

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Inson portreti yoki tanasini tasvirlashda talaba dastlabki kurslarda, geometrik shakllarni chizish davrida olgan bilim va malakalariga asoslanishi juda ham muhimdir. Chunki, tabiatdagi barcha narsalarning asosida geometrik shakllar yotadi. Geometrik shakl-tekisliklar asosida tasvir bajarish, jumladan, inson qomatini chizish va konstruktiv tahlil qilishga uyg‘onish davri rangtasvir, qalamtasvir ustasi va haykaltaroshi Albert Dyurer asos solgan.

Inson a’zolari va qomatini perspektiva jihatdan to‘g‘ri tasvirlashda u oddiy geometrik shakllardan foydalanish uchun ishlab chiqqan. Undan tashqari bu haqida “Plastik anatomiya” nomli qo‘llanma va darsliklari chop etilgan. Bu usul qalamtasvir va rangtasvir bajarishda katta malakaga ega rassomdan tortib, badiiy ijodga endigina qadam qo‘yayotgan o‘quvchiga ham juda katta yordam beradi. Misol uchun, inson boshini chizishda uning shakllini katta-katta geometrik bo‘laklar asosida tasavvur etish va uni xuddi haykaltorosh singari kesib ishlash ancha qulay usullardan biri hisoblanadi.

Natijalar. Portret janrini ishlashda plastik anatomiya qonuniyatlariga muhum ahamiyatga egadir.

Bunda bosh muskullari asosan yuz soxasida joylashgan bo‘lib, ularni bir-biridan muskullar keskin ajralib turadigan ikkita guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1) pastki jag‘ni xarakatlantiradigan ya’ni oson chaynash aktida ishtirok etadigan muskullar- bularni chaynov muskullari deb atasa bo‘ladi.

2) ruxiy kechinmalar yoki boshqa biror xil taasurotlar natijasida yuz ifodasini o‘zgartiradigan muskullar - bularni mimika muskullari deb atash mumkin [2. 53b].

Chaynov muskulari gavda qo‘l-oyoqlar skiletidagi muskullarni o‘rganishda bizga duch kelgan oddiy muskullar tuzilishiga ega. Ularning qisqarganda ko‘rinarli rel’ef beradigan bir qadar xajmli go‘shtdor qismi bo‘ladi. Nutq vaqtida og‘izni gox kichikroq, gox kattaroq ochib va yumib so‘zlarni talaffuz etishda xam ishtirok etadi: bundan tashqari ular mimika xarakatlarida xam qisman ishtirok etadi.

Mimika muskullari tamomila boshqacha xildagi muskullardir. Ular teri muskullari ya’ni skletning ayrim qismlarini emas balki terini xarakatlantiradigan muskullardir. Shu munosabat bilan ular skilet muskullariga qaraganda ko‘p darajada kuchsiz muskul qismi juda yupqa bo‘ladi va sezilarli rel’ef bermaydi. Ular yuz terisida yoki teri bilan suyaklar orasida joylashgan bo‘ladi.

Teri qoplamining surilishi va og‘iz burun ko‘z shakllarining o‘zgarishi odamning yuzida mimika o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi: kishining yuziga og‘riq, qayg‘u, alam, xursandlik, g‘azab va boshqalar singari turli emotsilarga mos keladigan turli xil ifodalar shuningdek sovuq va issiq eshituv, ko‘ruv xid va ta’m bilish singari tashqi taasurotlarga mos keladigan qiyofalar beradi.

Shunday qilib, portret ishlash uchun yuzning har bir muskul ishini o‘rganib chiqish lozim. So‘ng, yuzning turli qismlaridagi muskullarning birgalashib ishlanishi o‘rganiladi. Barcha qismlari yaxlit qilib o‘rganib chiqilib, xarflardan so‘zlar tuziladi.

Naturaga qarab ishlab bo‘lgandan keyin, rasmni miyadan chiqarib hotirada chizib ko‘rish foydalidir. Ayrim muskullarning ishlashini o‘rganishda muskullar ishining natijalari soddalashtirilgan holda tasvirlovchi grafik sxemalardan foydalanish muhumdir. Biroq, bu sxemalar ish o‘rganish vaqtida hajmiy tasvirlarning o‘rnini bosa olmaydi.

Muhokama. Portret ishlash boshqa janrlaga nisbatan juda ham jiddiy va murakkab hisoblanadi. Tasvirni bajarishda avvalom naturshikni xarakterini topib chiqarish lozim. Buning uchun usta-rassomlar ijodlarini kuzatish va juda ko‘p mashaqqatli mehnat ta’lib qilinadi. Agar o‘qituvchi mashn’ulotlar jarayoni talabalarga individual texnologiyadan foydalansa, u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga yanada tez va qisqa vaqtda erishadi.

Bugungi kunda davlatimiz ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Kelajagi buyuk davlat uchun komil insonlar kerakligi va zarurati bir necha bor ta’kidlanmoqda. Yosh avlodni komil inson qilib voyaga yetkazish, ko‘p jihatdan o‘qituvchi shaxsi, uning salohiyatiga bog‘liq kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi ham har tomonlama yetuk, yuksak malakali kadrlar, shu jumladan pedagog kadrlar tayyorlashga erishishdir.

Agar ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘zlangan natijaga nisbatan ko‘p vaqt, zo‘riqish kuchlari, materiallar, vositalar kabilar sarflash hisobga olingan bo‘lsa, bunda qo‘llanilgan texnologiyani samarali, ilg‘or deb bo‘lmaydi. Samarali, pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy unsurlarini har tomonlama hisobga olgan holda, ijodiy izlanishlar natijasidir.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quvchilarning egallayotgan bilimlari mustahkam bo‘lishiga, ularning qo‘shimcha mustaqil ish bajarayotganlari, izlanishlari, tasviriy san’at materialni o‘zlari qiyosiy tahlil qila olishlari va ular asosida mustaqil xulosasini chiqarishga o‘rgatadi. Shu uchun ta’lim metodlariga jiddiy e’tibor berish hozirgi kun talablariga aylanib kelmoqda.

Xulosa. Tasviriy san’at insondagi ajoyib fazilat – dunyoni o‘rganish, borliqni bilish, uni o‘rganish va sirlarini ochishga bo‘lgan extiyoj olamini ko‘rsatadi. Tasviriy san’at inson ruhiyati va ongiga ta’sir etadigan, undagi ezgu xislarni uyg‘otadigan, madaniy va ma’naviy olamini boyitadigan, insonni ruhlantiradigan san’at turlaridan biridir. Bu yuqoridagi fikrlarni o‘quvchilarda aks ettirish albatta o‘qituvchining mehnati va mahoratiga bog‘liqdir. Agar astoydil istasa, xar kim, qobiliyatidan qat’i nazar savodli chizishga o‘rgana oladi. Chizishni o‘rganish, savodli yozish yoki maktab matematika kursini o‘zlashtirishga qaraganda murakkab emas. Faqat intilish va asosiysi - yaxshi iroda, rasm istalgan kasb, istalgan mashg‘ulot egasiga zarurligini tushunish kerak. Chizishni bilgan san’atning barcha turlarini tushunadi, unga avval odatiy ko‘ringanlarning barchasida go‘zallikni ko‘ra biladi: uning fikrlash doirasi keng, ma’naviy dunyosi boy, u qiziqarli va shodon xayot kechiradi. Albatta buning zaminida tinimsiz mehnat yotadi.

Hozirgi zamon ta’limida bugungi kun yoshlaning talabiga muvofiq o‘qituvchi o‘z faoliyatida birqator vazifalarni amalga oshirishi lozim. Birinchidan, o‘z faoliyatini tahlil qilish, ijodkorlik, izlanish, qiyoslash, yo‘l qo‘ygan uslubiy

kamchiliklarni tanqidiy baholab, ularni bartaraf etishni o‘rganish, o‘z ish faoliyatini yanada takomillashtirish ustida tinimsiz mehnat qilish, pirovard natijada o‘z faoliyatining mukammal, o‘ziga xos shakl va uslubini belgilab maqsad qilib olishi kerak. Ikkinchidan, ilg‘or, tajribali, yutuq va imkoniyatga ega bo‘lgan hamkasblarining ish tajribalarini qunt bilan o‘rganish, o‘z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga qo‘llay olishi va takomillashtirib borish lozim. Uchinchidan, yuqori natijalarni ko‘rsatgan xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy va amaliy o‘rganishi lozim. To‘rtinchidan, respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib, o‘ziga kerak ma’lumotlarni qayd etib borish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda darslarning ta’limiy maqsadiga bir emas, bir necha metodlardan foydalanish evaziga erishiladi. Agar mashg‘ulotlar jarayonida samaradorlik darajasi pasaysa yoki o‘sish kuzatilmasa, zudlik bilan metodni o‘zgartirish kerak bo‘ladi. Yangi mavzu bayoni bo‘limida muammoli vaziyat hosil qilish uchun “aqliy hujum”, “tanqidiy fikrlash”, “klaster” metodlaridan, zaruriyat tug‘ilganda an’anaviy tushuntirish metodidan foydalanish lozim.

O‘quvchilarda mehnatsevarlikni, ijodkorlikni shakllantirishda tasviriy san’at dars mashg‘ulotlari ta’limining mazmun-mohiyati bilan katta imkoniyatlarga egadir. Har bir o‘qituvchi vijdonan o‘z ustida ishlagan holda zamonaviy pedagogik talablardan foydalangan holda dars mashn’ulotlari olib borilsa yuqori natijalarga erisha boshlaydi. Zero, har bir o‘qituvchining oliy maqsadi o‘quvchilarni ijodkorlik ruhida tarbiyalash, Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, yurt tinchligi, yuksak axloqiy fazilatlar, mehnatsevarlik tuyg‘ulari shakllantirish muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. F. Abdurasulov Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Toshkent-2002 y.
2. B. B. Baymetov , M.S. Tolipov Plastik anatomiya. Kasb- xunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005 y.
3. N. N. Azizxo‘jaeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: -2006 y.
4. R. Xasanov. Tasviriy san’at asoslari. Toshkent-2008y.
5. S. F. Abdurasulov Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. T.: “Ili-ziyo” 2011y.
6. B. N. Oripov Tasvriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. “ILM-ZIYo” Toshkent-2016 y.
7. R. Xasanov Tasviriy san’at darslarida sinfdan tashqari ishlar. T.: 2017 y.
8. O‘. J. Yo‘ldoshev taxriri ostida Umumiy pedagogika. (O‘quv qo‘llanma) Toshkent-2017 y.
9. S. Abdirasilov, O‘. Nurtaev Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini o‘qitish texnologiyasi T.: 2021 y.